

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.****Ubaydullayeva Vasila***Mirzo Ulug'bek nomidagi**O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi*ubaydullayevavasila3110@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida davlat-xususiy sherikligi (DXSh) asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Unda DXSh konsepsiyasining mohiyati, ta'lim tizimidagi o'rni, infratuzilma, boshqaruv, moliyaviy va kadrlar tayyorlash sohalaridagi integratsiya jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar berilgan. Maqolada DXSh modeli orqali maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va tizimni samarali boshqarishga erishish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Davlat-xususiy sheriklik, maktabgacha ta'lim tizimi, boshqaruv, xususiy sektor, innovatsiya, moliyaviy imtiyozlar, xizmatlar sifati, DXSh loyihalari, ta'lim islohotlari.

Hozirgi vaqtda jahonning bozor iqtisodiyotiga ega ko'plab mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, bu o'zgarishlar iqtisodiyotning yangi institutsional tuzilmasini shakllantirmoqda. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli vujudga kelayotganligining ifodasi hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida DXSHning turli xil shakllarini jadal rivojlanishi, ular iqtisodiyotning ko'p tamoqlarida keng ko'lamda qo'llanilishi o'zaro hamkorlikning ushbu shaklini bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida tan olish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishi xo'jalik sub'yektlari faoliyatining intensivligini ta'minlash, resurslar salohiyatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmini takomillashtirishni talab etmoqda. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida davlat va xususiy sheriklik o'rtasida istiqbolli hamkorlikni amalga oshirish hamda uning raqobatini rivojlantirish vositalari va choralari bilan optimal darajada uyg'unligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida DXSH loyihalarini realizatsiya qilish loyihaaning iqtisodiy jihatdan asoslanganligini tahlil qilish orqali mavjud risklarni minimallashtirish hamda va barcha manfaatdor tomonlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq murakkab vazifa hisoblanadi. DXSH loyihalarini realizatsiya qilish uchun davlat

sektori va xususiy sektor tomonidan mavjud risklarni tasniflanishishi va aniq ko'rsatilishi zarur. Sohada risklarni boshqarish DXSH loyihasining butunligicha qo'llanilishi mobaynida amalga oshiriladi hamda risklarni yuzaga kelishini oldindan ogohlantirish va loyihani realizatsiya qilish bosqichida bartaraf etishga undaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi loyihalarida risklarni boshqarish tizimi davlat-xususiy sherikligi loyihalarini realizatsiya qilish bo'yicha asosiy va maxsus risklarni tasniflash asosida takomillashtiriladi.

Hozirgi globallashuv davrida xususiy sektorning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi orqali DXSH tizimini keng rivojlantirish imkoniyatlari oshib bormoqda. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarning qamrov darajasini oshirish borasida tizimli ishlar Prezidentimiz tomonidan alohida vazifa sifatida belgilab berilgan. "Davlat – xususiy sheriklik asosida xususiy bog'chalar tashkil etish bo'yicha nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasini tuzish, jamg'arma mablag'larini nodavlat bolalar bog'chalari uchun bino va inshootlarni xarid qilish, yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga imtiyozli stavkada kredit ajratishga yo'naltirish" vazifasi¹ mazkur tizimning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishiga yo'naltirilish bo'ldi. Ushbu chora-tadbirlar ijrosi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sonini ko'paytirib xususiy sektor mablag'larini maqsadli sarflash va chekka hududlarda ham qamrov darajasini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, mazkur tuzilma rivojiga investorlarning mablag'larini yo'naltirish va ularga turli moliyaviy imtiyozlarning belgilanishi sohada sifatli ta'lim-tarbiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini muvaffaqiyatli tarzda bajarishning muhim shartlaridan biri qonunchilik bazasini yaratishdir. Bunda nafaqat shu sohaga oid alohida qonunni qabul qilish, balki uning normalaridan kelib chiqib boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, budget va soliqqa oid kodekslarga o'zgartishlar kiritish talab etiladi. Shuningdek, ushbu loyiha xususiy sarmoya ishtirokida amalga oshirilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Loyihani tayyorlashning ilk bosqichida bu jarayonga tajribali maslahatchilarni chorlash darkor. Xususiy hamkorni ochiq va adolatli saralash mezoniga tayangan tanlov asosida aniqlash muhim.

Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlariga tashkiliy munosabatlar ta'sir ko'rsatadi. Bunda mazkur munosabatga kirishmoqchi bo'lgan nodavlat maktabgacha ta'lim xizmatini ko'rsatish istagini bildirgan xususiy sherik davlat sherigiga o'z xohishiga qarab tegishli ariza taqdim etadi. Tanlovga bir ishtirokchidan ariza kelib tushgach, mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat aktivlarini boshqarish agentligi tegishli hay'at tomonidan o'rganiladi, ishtirokchi arizasi va arizaga ilova qilinadigan hujjatlarni tanlov e'lon

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида мактабгача таълим тизимини ислох қилиш ва ривожлантириш бўйича қўрилаётган чора-тадбирлар натижадорлиги таҳлиliga бағишланган вебдиоселектор йиғилишидаги нутқи.
<https://president.uz/uz/lists/view/1496>

qilingan vaqtdan boshlab, o'ttiz kunlik muddat tugagandan keyin, 5 ish kuni ichida o'rganish yakunlari bo'yicha hay'at tomonidan qabul qilinadi. Komissiya xususiy sherikning takliflari tanlov talablariga muvofiqligidan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy qaror qabul qiladi. Davlat sherigi Komissiyaning tanlov yakunlari bo'yicha qarori qabul qilingan kunda o'z rasmiy veb-saytiga axborot joylashtirish orqali tanlov natijalari haqida tanlov ishtirokchilarini xabardor qiladi. Agar ijobiy qaror berilsa u qabul qilingan kundan boshlab, 10 kun ichida davlat sherigi va xususiy sherik bitim tuzadi. Tahlillarning ko'rsatishicha, taqdim etiladigan hujjatlarda, ayniqsa, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlari uchun shartnomalar tuzish muddatlari, loyihani moliyalashtirish manbalari joriy narxlarda ishlab chiqiladi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi doirasida investitsion va ijtimoiy majburiyatlarni ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning hududiy dasturlarini shakllantirish va ushbu dasturlarda mazkur tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishning moliya-kredit (soliq, investitsiya, kredit) mexanizmiga asoslangan kompensatsiyalash tizimini tatbiq etish zarur. Buning natijasida, davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy holatini yaxshilash hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida, davlat xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining foydalanilgan elektr va tabiiy gaz xizmatlari narxining davlat byudjet mablag'lari hisobidan oylik kompensatsiyalar to'lash masalasini ham inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrimizcha, hududlarda maktabgacha ta'lim tizimiga nodavlat sektorni yanada kengroq jalb qilish uchun xususiy sektorning daromadlar darajasini oshirish maqsadida kompensatsiyalash masalasiga e'tibor qaratish zarurdir. Maktabgacha ta'lim tizimida nodavlat sektorni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, xususan davlat-xususiy sheriklikning 10 ga yaqin shakllari joriy etib kelinmoqda. Ayniqsa, hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini ko'paytirish, tarbiyalanuvchilar qamrovini yanada kengaytirish va ularga beriladigan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish masalalari dolzarbligi bois, butun iqtisodiy kompleks bilan birga, mahalliy davlat hokimiyati organlari mablag'larini ham ko'proq jalb qilish maqsadga muvofiq, tizimni rivojlantirish strategiyasining alohida belgilanishiga e'tibor qaratish lozim. Bizningcha, hududlarning olis va chekka hududlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari barpo etilishida yanada ko'proq moliyaviy imkoniyatlar taqdim etilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2025" ZAMONAVIY SHAROITDA DXSH ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING INTEGRATION JARAYONLARI" "Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot" Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal. 2025-yil iyun 6-son 1546-1548bet

2. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna, Zulfakarova Liliya -2025."THE SOCIO-ECONOMIC ESSENCE AND IMPORTANCE OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE EDUCATION SYSTEM" *Journal of International Science Networks* , 1(5), 114-117
3. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2025 "DEVELOPMENT CHARACTERISTICS AND TRENDS IN THE PROVISION OF PRESCHOOL EDUCATION SERVICES BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP". *MENTAL ENLIGHTENMENT SCIENTIFIC – METHODOLOGICAL JOURNAL* <https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I4-39>. 14.06.2025/ 379-384
4. Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna-2024- " TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH VA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGINI RIVOJLANTIRISH" *International Scientific and Practical Conference*, 1(2), 242-246.
5. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2024 "TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2024.e-ISSN-2992-877X. OAV №0237 503-510 bet. 11-son (08.00.05. №11).
6. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna Davlat-Xususiy Sherikchiligini Tashkil Qilish Samaradorligini Oshirish.// "Raqqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2024.-ISSN-2181-4430. OAV №0237 503-510 bet. 9-son (08.00.05. №9).
7. Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna "Ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish"// "Korrupsiyasiz jamiyat - muammo va yechimlar" mavzusida 2025 yil 12 fevralda respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 361-365
8. Sadullaevna U. V. The role of HEMIS in the management of the educational system of higher education institutions //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – T. 20. – S. 19-22bet.
9. Ubaydullaeva V. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIMNING TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH MUAMMOLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 132-143.
10. Убайдуллаева В. ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – S. 134-137.
11. Ubaydullaeva V. Digitization-an important "Driver" of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – S. 173-176.
12. Ubaydullaeva, V. (2024).Raqqamlashtirish-yangi ao'zbekiston rivojlanishining muhim "DRIVERI". *Science technology&Digital Finance*, 2(3), 18-22.
13. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – C. 33-38.

14. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.
15. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
16. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." Journal of Modern Educational Achievements 1 (2022): 33-38.
17. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
18. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.
19. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.
20. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.